



## TALABALARNING IJODIY FAOLLIGINI MEDIATA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

**Yermekbaeva X.**

*Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi*

**Tayanch soʻzlar:** oʻqituvchi, talaba, ijod, ijodiy faoliyat, kreativlik, oʻquv jarayoni, kasbiy tayyorgarlik, muammo.

**Ключевые слова:** преподаватель, студент, творчество, творческая деятельность, креативность, учебный процесс, профессиональная подготовка, проблема.

**Key words:** teacher, student, creativity, creative activity, creativity, educational process, professional training, problem.

### **PEZIOME:**

Maqolada talabalarning ijodiy faolligini mediata'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishga oid pedagogik hamda uslubiy adabiyotlar, talabalarning intellektual rivojlanishiga ijodiy yondashuvning ahamiyati va ijodiy faoliyatini tashkil etish masalalari ko'rib chiqilgan.

### **PEZIOME:**

В статье рассматривается педагогическая и методическая литература, посвященная развитию творческой активности студентов на основе медиаобразовательных технологий, значению творческого подхода к интеллектуальному развитию студентов, вопросам организации творческой деятельности.

### **SUMMARY:**

The article examines pedagogical and methodological literature devoted to the development of creative activity of students on the basis of media educational technologies, the importance of a creative approach to the intellectual development of students, issues of organization and creative activity.

Hozirgi vaqtda innovatsion ta'lim tizimining barpo etilishi, o'quv jarayoniga pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlaridan o'z o'rnida foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Bu, ayniqsa, iqtidorli talabalar bilan ishlashning ijtimoiy-pedagogik tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda o'z o'rnida axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o'qitishning yangi shakl, vositalaridan foydalanishga asoslangan. Bugungi kunda bo'lajak mutaxassislarga faqatgina tayyor nazariy bilimlarni berib qolmay, ularga mustaqil ravishda elektron-axborot resurslardan foydalanishni o'rgatish,

ularning yangi ko‘rinishlarini yaratish usullari, yo‘llari va vositalarini o‘rgatish muhim masalalardan hisoblanadi [1].

Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish «Raqqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotga samarali keng joriy etishni ta‘minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar davlat organlari hamda tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan ta‘minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Axborot texnologiyalarining o‘qitilishini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, mehnat bozorining malakali IT-mutaxassislariga bo‘lgan talabini qoniqtirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma‘rifat va raqqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida:

iqtidorli talabalarni axborot texnologiyalar muhitida aniqlashning samarali ilmiy-uslubiy asoslangan pedagogik usullarini yaratish;

o‘qitish va iqtidorini rivojlantirish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullarini yaratish orqali iqtidorli talabalarni aniqlash,

iqtidorli talabalarning psixologik rivojida axborotlashtirishning salbiy va ijobiy oqibatlarini aniqlash.

Mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e‘tibor qaratilib, yoshlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim, kasb-hunarlarni egallashi, jismonan va ma‘nan yetuk insonlar bo‘lib yetilishi, yoshlarning iqtidor va qobiliyatlarini vaqtli aniqlash, ularning qobiliyat va iste‘dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamiz olimlaridan F.R.Qodirov, A.A.Abduraximova, N.Begmatova, G.A.Berdaliev, G.E.Djanpeisova, X.Najmidinova, I.I.To‘ychievalar aqliy va ijodiy rivojlanishga oid tadqiqotlar olib borishgan. Mediata‘lim mazmuni, mediasavodxonlik, mediamahsulotlarni samarali o‘rganish hamda pedagog kadrlarning mediakompetentligini rivojlantirish muammosiga doir A.S.Abdullaeva, S.Beknazarova, N.S.Mo‘minova, N.Rustamova, X.Sh.Qodirovlar samarali ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirishda ular bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarda mediata‘lim texnologiyalari asosida ularda «ijodiy», «kreativ»



va «mantiqiy» fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun talabalar faoliyatining natijasi didaktik jarayonning maqsadi, o'quv mashg'uloti materiallarining mazmuni, o'qitish, o'rgatish shakli, metod va vositalarining to'g'ri va oqilona belgilanganligi hamda tanlanganligiga bog'liq bo'lib, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muvafaqqiyatli amalga oshishi uchun faol ta'sir etuvchi omillarning mavjud bo'lishi talab etiladi. Ayni vaqtda, pedagogikaga bog'liq fanlarni o'qitishga oid muammolar tobora faollashib bormoqda, bu talabalarning tayyorgarligining pasayishi, fanlarni mustaqil o'rganish bo'yicha o'quv-ma'lumotlarning yetishmasligi bilan bog'liq. Olimlarning izlanishlariga ko'ra, bu muammolarning yechimi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishga asoslangan o'quv tizimini joriy etish orqali o'quv jarayonini takomillashtirish zarurligini aytib o'tgan [2].

Medianing rivojlanishi natijasida axborotlarning mazmuni, ularni ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish usullari va yo'llarini ham nazorat qilish amalda qiyin bo'lib bormoqda. Axborotning bunday ta'sirida talabalarning mustaqil ravishda tafakkur qilish muammosi yuzaga kelmoqda. Talabalar ongida axborot olamini tartibga solish yo'llarini izlash, intellektual va ijodiy fikrlash bilan birgalikda tanqidiy fikrlash, axborot bilan muomala qilishning yangi usul va ko'nikmalar tizimini ishlab chiqish hamda shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu esa, mediata'lim, mediasavodxonlik, mediabilimdonlik, mediakompetensiya hamda mediamadaniyatni rivojlantirish zaruriyatini vujudga keltirdi.

Mediata'lim – global axborotlashuv sharoitida shaxsni media tomonidan tarqalayotgan axborotlarni tanlash, saralash, tahlil qilish va tanqidiy baholashga doir nazariy bilimlar majmui bilan qurollantirishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim turlaridan biri.

Adabiyot va ilmiy manbalarni tahlil qilish natijasida mediata'limning yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim degan xulosaga kelindi [3]:

- oila, ta'lim muassasalari bilan media o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- ota-onalarning mediasavodxonligini oshirish;
- talabalarni mediata'limni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- professor-o'qituvchilarning mediamadaniyatini rivojlantirish;
- talabalarda axborot xuruji, tahdid va shu turdagi xavfsizlikka qarshi media savodxonlikka oid ma'naviy-madaniy immunitetni shakllantirish;
- uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida media muhitda samarali harakatlanish ko'nikma, malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlovchi o'quv va tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish;



- talabalarni mediatexnologiyalardan foydalanishda qaramlik hissi bilan emas, balki, o'qib-o'rganishni maqsad qilishi;

- mediasavodxonlik va axborot madaniyati sohasida yetakchi mamlakatlarning ilg'or tajribalarini ommalashtirishga doir nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Shunday qilib, muammoni nazariy o'rganish xorijiy mamlakatlarda mediata'limni o'qitish jarayoniga tatbiq etish bo'yicha katta tajribalar to'planganligini ko'rsatadi. Mamlakatimiz sharoitida esa garchi medianing jamiyat va shaxs hayotidagi o'rni, ahamiyati tobora ortib borayotganligiga qaramay, mediata'limni o'qitish jarayonida qo'llash borasida hanuzgacha jiddiy qadam tashlanmaganligi ma'lum bo'ldi. Mazkur fikrning isboti elektron axborot vositalari, xususan, nashr ishlari bilan tanishish chog'ida sohaga oid ma'lumotlar deyarli uchratilmaganligi bilan izohlanadi. Mediata'limni takomillashtirib borish asosida talabalarning media vositalardan foydalanish savodxonligi oshiriladi, intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga erishiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Лутфиллаев М.Х. Теория и практика применения информационных технологии в учебном процессе (на основе мультимедийных средств): Автореф. дисс... пед.наук. – Самарканд: 2003. -35 с.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.
3. Karlibaeva G.E. Ta'limga innovatsion texnologiyalarni joriy etish tamoyillari // Mug'allim va uzliksiz ta'lim. – Nukus, 2018. – №4. – B. 115–117.